

BAG‘RIKENGLIK MADANIYATI MA’NAVIY-AXLOQIY TARAQIYOT ASOSI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

Samarqand davlat chet tillar instituti “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari”

kafedrası v.v.b, professori falsafa fanlari doktori (DSc),

xolikovyunus88@gmail.com Tel: +998939976442

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bag‘rikenglik madaniyatini shakllantiruvchi harakatlar, jamiyatimiz barkamol jamiyatga aylanishi va ma’naviy harakatlantiruvchi kuch ekanligi ochib berilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, “bag‘rikenglik madaniyati” tushunchasi “tinchlik madaniyati” tushunchasi bilan mazmunan uyg‘unligi va bag‘rikenglik madaniyati ma’naviy taraqqiyot omillari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Sivilizatsiya, istiqlol, falsafiy, axloqiy, modernizatsiya, tarbiyaviy, ijtimoiy, subyekt, millatlararo, qadriyat, strategiya, bag‘rikenglik, jamiyat, ko‘p, xilma-xil, xulq-atvor, mentalitet, milliy qadriyat, millat, elat.

Аннотация: В статье рассматриваются действия, формирующие культуру толерантности, трансформацию нашего общества в гармоничное общество и ее духовную движущую силу. С этой точки зрения понятие «культура толерантности» коррелирует с понятием «культура мира» и изучаются факторы духовного развития культуры толерантности.

Ключевые слова: Цивилизация, независимость, философский, моральный, модернизация, образовательный, социальный, субъект, межнациональный, ценность, стратегия, толерантность, общество, множество, многообразный, поведение, менталитет, национальная ценность, нация, народ.

Abstract: This article reveals the actions that form a culture of tolerance, the transformation of our society into a harmonious society and its spiritual driving force. From this point of view, the concept of "culture of tolerance" is consistent in content with the concept of "culture of peace" and the factors of spiritual development of the culture of tolerance are studied.

Keywords: Civilization, independence, philosophical, moral, modernization, educational, social, subject, interethnic, value, strategy, tolerance, society, many, diverse, behavior, mentality, national value, nation, people.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti qadimiy o‘zbek sivilizatsiyasidagi millatlararo madaniyat va bag‘rikenglik madaniyati asosida qurilgan bo‘lib, unga asoslangan holda o‘zgacha shaklda

rivojlanishga qadam qo'ydi. Bu O'zbekistonning o'zaro xalqaro hamkorlik va istiqloq dasturlari bilan amalga oshirilmoqda. Buni davlatimizning siyosati va hamkorlik bilan bog'liq tashabbuslari namoyish etadi hamda iqtisodiy modernizatsiyani, sotsial rivojlanishni, madaniyat va san'atning yuksalishni, ilmiy va texnik kashfiyotlarni o'z ichiga oladi. Masalan, faylasuflardan Demokrit zardushtiylik dini haqida fikr yuritib, zardushtiylik dini barcha xalqlarning talabi insonlar tanasining ruhiy pokligidir. Zardushtiylik dini bir mamlakatda, bir jamiyatda, butun dunyoda istiqomat qilayotgan insonlarning tinch va osoyishta, ittifoqda, hamjihatlikda yashashini maslahat beradi. Bundan tashqari inson o'z yaqinlariga xayrixoh bo'lishini, bir-biriga yordam berishini, yomonlik va zo'ravonlikni qoralaydi -deb qayd etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bizning diyorumizda qadimdan ham millatlararo madaniyat va bag'rikenglik madaniyati mavjud bo'lgan.

Bugungi kunda millatlararo madaniyatni bag'rikenglik madaniyati asosida shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Kishilik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotidan bizga ma'lumki, bag'rikenglik madaniyati insonlarni yomon yo'lga boshlamagan. Jumladan, bag'rikenglikning axloqiy mezonlari bu dunyoning tinchligini, insonlarning millatidan, dinidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qati nazar hammasi bir insonligini eslatib turuvchi, dunyoda har bir insonni hushyor bo'lishga odamlarni o'zidan yaxshi nom qoldirishga undagan. Milliy madaniyat esa urf-odatlar to'planishidan o'ziga xos madaniyatni shakllantirishdir va tarixiy jarayonda to'plangan ma'naviy xususiyatlardir. "Milliy madaniyatning qadr-qimmatini oshirish, insonlarning o'zligini tushunish va jamiyatning mavjudligini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'g'in sifatida, uning barcha bosqichlarini muvaffaqiyat bilan qamrab olgan bo'lishi kerak"¹. Jamiyat, milliy madaniyat va milliy o'zlikning mavjudligini saqlaydigan muhim aspekt hisoblanadi.

Bag'rikenglik madaniyati axloqiy madaniyat masalasiga qaratilgan bo'lib, saxovat, mehr-oqibat, hushmuomlalik kategoriyalaridan hukm chiqarishda namoyon bo'ladi va uning yo'nalishi haqiqatga qaratilgan. "Bu unsurlar o'zligini anglash sohibiga subyektiga ko'ra farqlanuvchi muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatga xosdir"². bag'rikenglik madaniyati bu ulug'vorlikni rivojlantiradi, dinamik madaniyat esa haqiqiy, aniq yovuzlikka qarshi ko'proq kurashadi. Insonning oqilona qobiliyati madaniy tanlovda madaniyatning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlaydi. Inson ijtimoiy muhit mahsuli, zamonaviy inson esa madaniyat mahsulidir. Insonning ijtimoiyligi doimo biologik xususiyatlarini yo'qotadi va zamonaviy odamlar doimo madaniyat kishanlarida yashaydilar. "Ma'naviy - ruhiy olamning barqarorligi va yuksalishi bag'rikenglik, odamgarchilik, javonmardlik, o'z-o'zini anglash,

¹ Гамбаров Ю. С. Гражданское право. Общая часть. –Петербург, 1911. –С.32.

² Фалсафа асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2005. –Б. 208.

adolat va poklik kabi sifatlar, insoniy fazilatlar bilan bog‘liq hisoblanadi”³. Umuman olganda, bag‘rikenglik madaniyati serqirra tushuncha bo‘lib, ma’naviy-axloqiy tamoyillar bilan parallel namoyon bo‘ladi. U muayyan davlat aholisining xilma-xil qadriyat va ana’analar qurshovida bo‘lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Insonlar o‘zining milliy bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishda yetkazib berilgan tadbirlarga qaratilgan holda, bir-biriga ehtirom bildirib, millatlararo do‘stlik va hamkorlikni o‘rganishadi⁴. Axborot va madaniy takliflarning ochiqligi, bag‘rikengligi vaqti-vaqti bilan ijtimoiy tizimlarga o‘zgarishlarni olib kelishi, bu esa uzoq muddatli ichki barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoning 74-maqsadida: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash”⁵. O‘zbekistonning yangi davrida bag‘rikenglik madaniyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan kelajak talablariga javob berish uchun, yutuqlar olish uchun ilmiy sohada tadqiqotlar va izchiliklar juda muhimdir.

Bag‘rikenglik madaniyatning chegarasi yo‘q, mukammal bag‘rikenglik madaniyatning vatani yo‘q va uning transsendentsiyasi davlat xatti-harakatlariga bo‘ysunmaydi. Bag‘rikenglik madaniyati - barcha madaniyatlar uyg‘unligining “onasi” hisoblanadi hamda turli madaniyatlar “to‘qnashadigan okean”, o‘z navbatida, bu yerda madaniyatlar erkin tanlash, erkin kombinatsiyalash va erkin tanlash orqali yangi madaniy ekologiya muhitini yuzaga keltiradi. Bu holat bag‘rikenglik madaniyatni “quyoshli” qiladi, bag‘rikenglik esa madaniyatni keng qamrovli qiladi.

An’anaviy o‘zbek madaniyati konsepsiyasida bag‘rikenglik madaniyati odamlarning fikrlash va xatti-harakatlariga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbek xalqi inson va tabiat o‘rtasidagi hamda turli mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar me’yoriy va yo‘naltiruvchi rolga ega. Bag‘rikenglik madaniyatning axloqiy jihatlari o‘zbek madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari va uslubini yaxshi aks ettirishi mumkin. Tarixdan bizga ma’lumki, O‘zbekistonda istiqomat qilayotagan barcha insonlarning madaniyatida bag‘rikenglik madaniyatiga urg‘u berilgan va bag‘rikenglikni rivojlantirish an’anaviy madaniyatga aylangan holda har bir madaniyatning ijobiy tomonlarini o‘z ichiga olgan. “Yangi O‘zbekistonning millatlararo aloqalarining mustaqil rivojlanishi va millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini oshirishdagi roli tushunchasini oshirishimiz uchun, O‘zbekistonning mustaqil siyosiy va madaniy strukturasi bo‘lishini ta’kidlash zarur”⁶. Bu siyosiy va madaniy aloqalar sivilizatsiyaga yechim topgan

³Тураев Б.О., Эргашева М.Х., Рахмонов Б.У., Муминова З.О., Очиллов Ж.А. Синергетика моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. –Тошкент: 2017. -Б. 210.

⁴ Современное образование как откры http://ivo.garant.ru

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁶ <https://www.tstu.ru/book/elib/pdf/2019/nikulin.pdf>

davlat deb hisoblanishi mumkin. O‘zbekistonning sivilizatsiyaviy taraqqiyoti davomida bag‘rikenglik madaniyatini oshirish va milliy madaniyatini mustaqil ravishda rivojlantirishga harakat qilish juda muhimdir. Ushbu masalada Prezident Sh.M.Mirziyoyev ma’naviy sohadagi islohotlarning mohiyatini ham tolerantlik (bag‘rikenglik) tamoyilining ajdodlardan meros ekanligi bilan tavsifladi. Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan BMT minbaridan Bosh Assambleyaning “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklifi ilgari surildi”⁷.

Bag‘rikenglik - dunyoda barcha millat va ellatlarni tinchlik va osoyishtalikka olib boruvchi hamda insonlar o‘rtasidagi kelib chiqishi mumkin bo‘lgan madaniyatsizliklardan tinchlik va halollik madaniyatiga eltuvchi beqiyos kuchdir.

Bag‘rikenglik madaniyati umummadaniyatning bir qismi bo‘lib, u o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bag‘rikenglik tolerantlik bilan hamohang tushuncha sifatida qo‘llaniladi. Tadqiqotchilar sohalari, tadqiqot obyektlarining mohiyatidan kelib chiqib, bu tushunchaga turlicha qarashlarni ilgari surishgan. Jumladan, bag‘rikenglikka ruscha “Falsafa qisqacha izohli lug‘at”ida “tolerantlik (lotincha tolerantia - chidam) - o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odoblari, his-tuyg‘uilari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan chidamlilik, bag‘rikenglik”⁸, deb ta’rif berilgan. Jamiyat va davlatda o‘ziga xos va mos millatlararo madaniyatning bag‘rikenglik muhitini yuzaga keltirish mumkin. Ya’ni, jamiyatda millatlararo madaniyatning bag‘rikenglik muhiti ijtimoiy tarixiy hodisa hisoblanadi. Fuqarolarda yuksak axloqiy bag‘rikenglik muhitini shakllantirish ham o‘ziga xos falsafiy jarayondir.

Bag‘rikenglik asrlar mobaynida shakllangan xalqimizning milliy e’tiqod darajasiga ko‘tarilgan kengqamrovli amaliy qadriyat sifatida taraqqiy etib keldi. Homiylik, ezgulik, saxovatpeshalik, hojatbarorlik kabi fazilatlarining nazariy - metodologik asosini tashkil etadi. Odamlarga yordam berish, yaxshilik, muruvvat, mehr-shafqat, saxovatpeshalik ko‘rsatish muhtojlarning hojatini chiqarish, nogironlarni qo‘llab-quvvatlash kabi bag‘rikenglikning xususiyatlari nafaqat falsafiy merosimizda, balki bugungi kundagi muhim masala sifatida katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda bag‘rikenglikning mohiyatini chuqurroq anglash uchun, avvalo, uning qanday turlari mavjudligi va ular o‘rtasidagi aloqadorlikini tahlil qilish lozim. Diniy yoki etnik bag‘rikenglikni tarbiyalashga zo‘r berib, boshqa turlari unitib qo‘yilsa, belgilangan rejani bajarib bo‘lmaydi.

Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish masalasi millatlararo madaniyatni rivojlantirishning dolzarb masalalaridan hisoblanad. Chunki millatlar o‘rtasidagi munosabatlar dunyoning turli mintaqalarida turlicha talqin qilinmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me’yoriy hujjatlar kelajakda masalaning pozitiv yechimini

⁷ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятига берилган энг олий баҳодир. –Тошкент: 2018. –Б. 254.

⁸Безюлева Г.В. Толерантность: взгляд, поиск, решение // – Москва: 2003. – С. 58.

ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir davlatning millatlararo madaniyat rivojiga qo'shadigan alohida hissasi bo'lishi, bu ularning davlat boshqaruvidagi qonunlarida aks etishi, teng huquqlilik va adolat tamoyillari doirasida rivojlanishida ifodalanadi.

FOYDALANGANA DABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гамбаров Ю. С. Гражданское право. Общая часть. - Петербург, 1911. - С.32.
2. Фалсафа асослари. -Тошкент: Ўзбекистон, 2005. - Б. 208.
3. Тураев Б.О., Эргашева М.Х., Раҳмонов Б.У., Муминова З.О., Очилов Ж.А. Синергетика моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. - Тошкент: 2017. -Б. 210.
4. Современное образование как откры <http://ivo.garant.ru>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
6. <https://www.tstu.ru/book/elib/pdf/2019/nikulin.pdf>
7. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятига берилган энг олий баҳодир. - Тошкент: 2018. - Б. 254.
8. Безюлева Г.В. Толерантность: взгляд, поиск, решение // - Москва: 2003. - С. 58.
9. Холиков, Юнус Артикович. "Ўзбекистонда миллатларaro бағрикенглик инсонпарварликнинг асосий тамойили сифатида." Философия и жизнь международный журнал si-1 (2022).
10. Kholikov, Yunus Ortikovich. "Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance." The American Journal of Social Science and Education Innovations 3.09 (2021): 48-51.
11. Kholikov, Yunus Ortiqovich. "MORAL ASPECTS OF NATIONAL ETHNIC IN BRINGING UP YOUNG GENERATION WITH GENEROSITY." Theoretical & Applied Science 7 (2019): 18-21.
12. Холиков, Юнус Ортикович. "Бағрикенглик маданиятнинг моҳияти ва унинг ахлоқий асослари." Journal of Integrated Education and Research 1.6 (2022): 17-21.